UDK 821.512.133.09-3

CHO‘LPONNING TARJIMONLIK FAOLIYATI VA “DUBROVSKIY” TARJIMASI HAQIDA

D.Z. Abdullayeva

Maqolada Abdulhamid Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati va mahorati o‘rganilgan. Cho‘lponning o‘zbek badiiy tarjimachiligiga qo‘shgan hissasi, tarjima asarlarining xususiyatlari tahlil qilingan. Adib o‘zbek tiliga o‘girgan asarlarning janrlari va miqdori haqida faktlar keltirilgan. “Dubrovskiy” (A.Pushkin) qissasining Cho‘lpon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi 1935-, 1937-, 1939-yillardagi nashrlar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *tarjima, badiiy tarjima, o‘zbek tarjimachilik tarixi, Cho‘lponning tarjimonlik mahorati.*

В статье изучена переводческая деятельность и мастерство Абдулхамида Чулпана. Проанализирован вклад Чулпана в узбекский художественный перевод и особенности его переводных произведений. Приведены факты о жанрах и количестве произведений, переведенных писателем на узбекский язык. На основе изданий 1935, 1937 и 1939 годов исследован перевод Чулпаном повести «Дубровский» (А.Пушкин).

Ключевые слова: *перевод, художественный перевод, история узбекского перевода, переводческое мастерство Чулпана.*

Kirish

XX asr boshlarida Cho‘lpon she’riyat, nasr, dramaturgiyaga oid asarlar yozish bilan birga badiiy tarjima sohasida ham faoliyat olib bordi. Uning jahon adabiyotidan qilingan tarjimalari o‘sha davrda alohida nashrlar va to‘plamlarda chop etildi. Qatag‘on yillarida, Cho‘lpon nomi qoralangan 1938-yildan keyin ham tarjimalari nashr qilinaverdi, biroq tarjimon nomi ko‘rsatilmadi. Hozirda Cho‘lpon tarjima asarlarining soni bir yuz yigirmadan ortadi. Biroq bu tarjimalar bugungi kungacha yaxlit, tizimli tadqiq etilmagan.

Material va metodlar

A.Pushkin qissasining Cho‘lpon tomonidan amalga oshirilgan tarjimasini o‘rganishda 1935-, 1937-, 1939-yillardagi nashrlarga tayanildi. Shuningdek, Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati va mahoratini tadqiq etishda alohida nashrlar, davriy nashrlar, hujjatlar va boshqa manbalardagi ma’lumotlardan foydalanildi.

Muammoni o‘rganishda qiyosiy-tipologik, biografik tahlil metodlari qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama

Cho‘lponning tarjima sohasidagi faoliyati haqida adabiyotshunoslikda ayrim tadqiqotlar, maqolalar yaratilgan, fikr-mulohaza va tahlillar mavjud bo‘lsa-da, barcha tarjimalari bo‘yicha yaxlit, tizimli tadqiqot olib borilmagan. O.Sharafiddinov [1. B. 93–108], G‘.Salomov [2, 10], J.Sharipov [3, 4, 5], N.Vladimirova [6], N.Karimov [7], D.Quronov [8], Sh.Turdiyev [9. B. 120–130], T.Rahimov [10], R.O‘lmasovlarning [11] ilmiy tadqiqotlarida Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan bog‘liq masalalar haqida ilmiy, publitsistik maqolalar ham e’lon qilingan. Mavjud ishlarda Cho‘lponning tarjimonligi haqida umumiy tavsif berilgan yoxud ayrim tarjimalarigina tahlilga tortilgan.

Cho‘lpon XX asrning 20–30-yillaridagi o‘zbek badiiy tarjimachilik maktabiga asos solgan mahoratli tarjimon hamdir. U jahon adabiyotidan yuzlab she’riy, nasriy, dramatik asarlarni yuksak mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girgan. Adibning badiiy tarjima sohasiga kirib kelishi qaysi davrga to‘g‘ri kelishini belgilaydigan bo‘lsak, ilk ijodiy davri yillari deb hisoblash mumkin. Cho‘lpon ijodiy biografiyasi tadqiq etilgan adabiyotlarda ijodining boshlanishi 1912–1914-yillar deb ko‘rsatiladi. Adibning badiiy tarjima sohasida ham sermahsul ijodkor bo‘lganini nazarda tutadigan bo‘lsak, zikr etilgan yillar tarjimachilikka kirib kelishga ham tayyorgarlik bosqichi bo‘lgan deb hisoblash

mumkin. Cho‘lpon jahon adiblari asarlarini rus tilidagi nashrlari asosida o‘zbek tiliga o‘girdi. Cho‘lponshunoslar uning rus tilini o‘z ona tilini qanday bilsa, ana shunday mukammal darajada bilganini qayd etadilar. Adibning rus tilini yoshlik chog‘idan o‘rgangani haqida M.Muhammadjonov quyidagicha qayd etadi: “Abdulhamid har kun xususiy ravishda ruscha o‘qir edi. Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo‘lib, ruscha gazetalarni ham o‘qib turar edi” [12. B. 130]. M.Muhammadjonovning yana keltirishiga ko‘ra, Cho‘lpon ikkisi “Intibohi Turkiston” nomli gazeta chiqarishga ruxsat so‘rab gubernatorga ariza yozadilar. Ma’lum bo‘lishicha, gubernatorga arizani o‘zbek tilida M.Muhammadjonov yozgan, Cho‘lpon ruschaga tarjima qilgan. 1917-yil fevralda Nikolay podshoning taxtdan ag‘darilishi haqidagi rus tilidagi telegrammani Cho‘lpon o‘qib, uni M.Muhammadjonovga yetkazadi [12. B. 131].

Cho‘lpon tarjimachilik sohasiga erta kirib kelgan va bu faoliyatni she’riy asarlar tarjimasi bilan boshlagan. Uning ilk tarjimasi haqidagi rasmiy sana 1919-yil bilan belgilanadi. Cho‘lpon tarjimasidagi Ejen Potye qalamiga mansub “Baynalmilal ashulasi” “Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil, 19-oktyabr sonida chop etiladi[2]. Ayni shu vaqtdan bir oy o‘tib, mazkur gazeta sahifasida Cho‘lponning ikkinchi tarjimasi, ya’ni M.Kolsovning “Hoy, och kambag‘al” (1919-yil, 16-noyabr) she’ri chop etilgan. Boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, “Cho‘lpon tarjima borasidagi faoliyatini oktyabr inqilobidan keyin boshlagan. Bu davrga kelib Cho‘lponning tarjimonlik shaxsiyatida boshlang‘ich asoslar, malakalar mavjud edi, albatta” [10. B. 24.]. Cho‘lpon o‘zbek tiliga o‘girgan asarlar salmoqli hajmni tashkil qiladi, ularning janrlari rang-barang. Ular quyidagilar: 1. She’rlar. 2. Hikoyalar. 3. Qissalar. 4. Romanlar. 5. Dramatik asarlar: komediya, tragediya, drama. 6. Pantomima. 7. Publitsistik maqolalar. 8. Darslik. 9.Teatr dasturi, libretto. 10. Musiqa bo‘yicha risolalar.

Bundan tashqari boshqa adiblarning tarjimalarini tahrir ham qilib bergan. Masalan, A.Chexovning “Jonginam” (I.Razzoqov tarjimasi), “Katta Volodya va kichik Volodya”, “G‘ilof bandasi” hikoyalarini (R.Is’hoqov tarjimasi) tahrir qilgan.

Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati 20-yillarning o‘rtalaridan nasrda jadallashdi. Bu davrda badiiy tarjima sohasida Cho‘lpon singari sermahsul tarjimon yo‘q edi. Hukmron mafkura talablari va topshirig‘iga ko‘ra ham rus va jahon adabiyoti namunalari o‘zbek tiliga tez vaqtda o‘girilishi, o‘lka aholisiga adabiyot orqali ham ta’sir qilish siyosiy masala edi.

Cho‘lpon tarjima qilgan asarlar tarkibida uchta qissa mavjud. A.Pushkinning “Dubrovskiy”, N.Gogolning “Ivan Ivanovich va Ivan Nikiforovich o‘rtalarida bo‘lib o‘tmish nizolar hikoyati”, B.Cheprunovning “Miyovuddin Mirzo” asarlarini tarjima qildi. Dastlabki ikki qissa tarjimasi adabiy jamoatchilikka va kitobxonlarga ma’lum bo‘lsa-da, “Miyovuddin Mirzo” qissasining Cho‘lpon tomonidan qilingan tarjimasi haqida ilmiy jamoatchilik ma’lumotga ega bo‘lmasa kerak. Chunki bu tarjimaning 1930-yilda “Mushtum” jurnalida chop etilgan varianti bor, xolos. Ehtimol, kelgusida qissa tarjimasining boshqa variantlari izlansa, arxiv materiallari, matbuot nashrlari yoki to‘plamlardan topish mumkindir.

A.Pushkinning “Dubrovskiy” qissasi tarjimasi haqida ham ayrim aniqlashtirilishi kerak bo‘lgan masalalar mavjud. Qissa tarjimasi haqida so‘z borganda, asarni Cho‘lpon o‘zbekchalashtirganini adabiyotshunoslar qayd etarkan, aynan Cho‘lpon tarjima qilganining isboti sifatida, odatda, adibning O‘zbekiston Yozuvchilar soyuzida so‘zlagan nutqini keltiradilar. Shunday bo‘lsa-da, 1939-yilgi matnda tarjimon nomi ko‘rsatilmagan va shu bois tarjima Cho‘lpon qalamiga mansubligi bugungacha bari-bir taxminligicha qolmoqda edi. Adabiyotshunos N.Vladimirova “Dubrovskiy” qissasining 30-yillarda o‘zbek tilida ikki marta e’lon qilingani, birinchi tarjima Ismoil Obid qalamiga mansubligi, ikkinchisi 1939-yilda nashr qilingani (muharrir M.Hakim) va muallifi noma’lumligi, keyingilari 1955-, 1956-yilda Ma’ruf Hakim tarjimasida chop etilganini ta’kidlaydi [6]. Ko‘rinadiki, ikkinchi tarjima (1939) muallifi noma’lumligiga ko‘ra hamda Cho‘lponning 1937-yildagi soyuzda so‘zlagan nutqi shu davrga to‘g‘ri kelishi orqali tarjima muallifi Cho‘lpon, degan taxminiy xulosaga kelinmoqda.

“O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi” kitobida quyidagicha ma’lumot beriladi: “1930-yilda A.S.Pushkinning “Dubrovskiy” povesti Ismoil Obid tarjimasida bosilib chiqdi. 1931-yildan boshlab M.Gorkiyning asarlari birin-ketin tarjima etilib nashr qilina boshladi: “9-yanvar”, “Chaqmoqli ish” (“Дело с застежками” – tarjimoni noma’lum), “Men yozishni qanday o‘rgandim” (G‘.Abdulla tarjimasi), “Lochin qushi qo‘shig‘i” (Nasrullo tarjimasi) asarlari ana shular jumlasidandir” [13. B. 41]. Shuni aytish kerakki, keyingi, tarjimoni noma’lum deb ko‘rsatilgan M.Gorkiyning “9-yanvar” hikoyasi 1938-yilda chop etilgan bo‘lib, tarjimon M.Siddiqdir, ikkinchi hikoya “Chaqmoqli ish” emas, “Ilgaklar” nomi ostida alohida kitob shaklida, titul varag‘ida “Cho‘lpon tarjimasi” izohi bilan 1931-yil (Tashkent-Baku: Uznashr)da chop etilgan.

[2] Cho‘lpon tomonidan tarjima qilingan asarlarning davriy ro‘yxatini tuzgan va bizga taqdim etgan Andijon viloyati Tarix va madaniyat davlat muzeyi ilmiy bo‘lim mudiri, yosh olim Iskandar Madg‘oziyevga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima tarixiga oid yuqorida aytilgan kitobda S.Palastrovning “Pushkin asarlari o‘zbek tilida” maqolasi tahlil qilinadi. Maqolada 1933-yilda Pushkinning tarjima qilingan asarlaridan “Dubrovskiy” ham sanalgan. Xususan, “Tarjima qilingan bu asarlarni S.E.Palastrov tahlil qilib, “nasriy asarlar tarjimasi nihoyatda past saviyada ekani, chunki tarjima bilan shug‘ullanganlarning deyarli hammasi maxsus ilmga ega emasligini qayd etib o‘tadi, tarjimonlar har doim ham asl nusxaning g‘oyasi va ruhini aniq qayta bera olmas edilar” [13. B. 139] deyiladi. Bizningcha, 1933-yilda chop etilgan “Dubrovskiy” tarjimasi I.Obidga tegishli bo‘lib, Cho‘lpon tarjimasi 1935-yilda va undan keyingi yillarda alohida nashr va darsliklarda chop etilgan. S.Palastrov O‘zbekiston davlat nashriyotining tarjima sohasidagi ishlariga ijobiy baho berib, tarjimonlik ishiga mutaxassis tarjimonlar, shoir va yozuvchilar jalb qilingani, natijada Cho‘lpon A.S.Pushkinning “Dubrovskiy” qissasini, “Pop va uning xizmatkori”, “Balda haqida ertak” asarini tarjima qilganini aytib o‘tadi. 1936-yilda A.Pushkin vafotiga 100 yil to‘lishi munosabati bilan O‘zbekistonda shoir asarlarini tarjima qilish ishi bo‘yicha komissiya tashkil qilingani, Pushkin asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish topshirilgani haqidagi o‘rinda Cho‘lponga “Boris Godunov” asari berilgani to‘g‘risida so‘z boradi. Bulardan ko‘rinadiki, S.Palastrovning ham Cho‘lpon tarjimalari haqidagi fikri ijobiy bo‘lgan.

Bu davrda Pushkin yubileyi bo‘yicha quyidagi tadbirlar belgilangan edi: “1936-yil A.S.Pushkinning bo‘lajak yubileyi munosabati bilan O‘zbekiston KP(b) MK qator tadbirlar belgiladi, shu jumladan, buyuk rus shoirining asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilish ishlariga muhim ahamiyat berildi. Shu maqsadda respublikaning taniqli shoir va yozuvchilari, jumladan, Hamid Olimjon, Oybek va boshqalar ishlash uchun ajoyib sharoitlar yaratilgan go‘zal Chimyonga yuborildilar” [5. B. 84].

1937-yilda Pushkin vafotining 100 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda katta tadbirlarga tayyorgarlik qilinganini matbuot nashrlaridan ham bilish mumkin. “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi”ning “Adabiy hayot xronikasi” qismida gazetalardagi shu mavzuga doir maqolalarning qisqa mazmuni bilan tanishish mumkin. “Yosh leninchi” gazetasining 1937-yil 8-yanvar sonida A.S.Pushkin vafotiga yuz yil to‘lishi munosabati bilan O‘zbekiston Xalq Komissarlari soveti uning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish haqida qaror qabul qilgani haqida xabar berilgan, “Qizil O‘zbekiston” gazetasi (12-yanvar)dagi xabarda O‘zbekiston Yozuvchilar soyuzida yig‘ilish bo‘lib o‘tgani, bunda yozuvchi Oybek “A.S.Pushkin ertaklari” degan mavzuda doklad qilgani, yig‘ilishda Oydin, G‘ayratiy, Cho‘lpon, U.Nosir, R.Majidiy va boshqalar so‘zga chiqqani aytiladi. Mazkur gazetaning 1937-yil 2-fevraldagi sonida O‘zbekiston Yozuvchilar soyuzida A.S.Pushkin lirikasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lgani, bunda shoir Uyg‘un “A.S.Pushkin lirikasi” degan mavzuda doklad qilgani, Oydin, Usmon Nosir va boshqalar so‘zga chiqqani haqida axborot beriladi. Gazetaning 10-fevral sonida Toshkentdagi Sverdlov nomli teatr binosida A.S.Pushkin vafotiga yuz yil to‘lishiga bag‘ishlangan adabiy kecha o‘tkazilgani, kechada shoir Usmon Nosir “A.S.Pushkinning hayoti va ijodi haqida” doklad qilgani, shoirlardan Uyg‘un, Oydin, M.Shayxzoda, G‘ayratiy va boshqalar so‘zga chiqqani haqida ma’lumot beriladi [14]. Ko‘rinadiki, 1937-yilning boshlarida Cho‘lpon bu tadbirlarda ishtirok etgan bo‘lsa, keyinroq uni sekin-asta adabiy davralardan chetlashtira boshlaganlar.

Tadqiqotchi T.Rahimov ham ayni shu yillarda “Cho‘lpon A.Pushkinning bir necha asarlarini – “Gul va bulbul”, “Bandi” she’rlarini, “Pop va uning qaroli Balda haqida ertak”ni, “Dubrovskiy” romanini, “Boris Godunov” tragediyasini o‘zbek tiliga o‘girgan”ini ta’kidlaydi. T.Rahimovning so‘zlaridan Cho‘lpon 1936-yilda, Pushkin tavalludi munosabati bilan qissani tarjima qilgan, degan mazmun kelib chiqadi. Aslida faktlarni solishtirganimizda, Cho‘lpon “Dubrovskiy” tarjimasini 1935-yilgacha amalga oshirib bo‘lgan edi. T.Rahimov bu asarlar Cho‘lponning so‘nggi tarjimalari ekanini ham aytib o‘tadi: “Mazkur tarjimalar Cho‘lpon ijodiy faoliyatining so‘nggi namunalaridan bo‘lib, ularda ijodkorning tarjimonlik shaxsiyati to‘laligicha o‘zini namoyon etgan” [10. B. 21–22]. Shuningdek, T.Rahimov “Pop va uning qaroli Balda haqida ertak”ning tarjimonini Cho‘lpon deb ko‘rsatgani muhimdir. Chunki bu asarning tarjimoni ayrim manbalarda Elbek, boshqalarida Cho‘lpon deb aytib kelinar edi. Lekin T.Rahimovning “Dubrovskiy”ni roman deb atashi to‘g‘ri emas, chunki uning rus tilidagi asliyatida ham “povest” deb qayd etiladi.

Cho‘lpon 1937-yil 7-8-aprelda O‘zbekiston Yozuvchilar soyuzida so‘zlagan nutqida “Dubrovskiy”ni tarjima qilgani aytadi: “Endi eng og‘ir va nozik masala bu – Cho‘lpon o‘zini ko‘rsatmadi degan masala. Moskvadan kelganimga ikki yil bo‘ldi. Ammo shu muddatning ellik protsentini “skidka” qilasiz. Chunki men ko‘p vaqt kasal bo‘laman. Men yarim odamlikdan chiqqanman. Buni hamma bilishi kerak. Mana shu ikki yil orasida men qanday ishlarni bajardim? “Ona”ning ikkinchi bo‘limini tarjuma qildim. Bu to‘g‘rida hammadan maqtov so‘zlarini eshityapman. Bu bo‘lim ham hajm jihatdan birinchi bo‘limcha keladi. Juda katta asar. Undan keyin Gorkiyning “Yegor Bulichev”ini, Pushkinning “Dubrovskiy”, “Boris Godunov” asarlarini tarjuma qildim. “Jo‘r” degan she’rlar to‘plamini nashrga topshirdim, Lohutiyning “Ovrupo

safari”ni tarjuma qildim” [15. B. 52]. Yana bu ma’ruzadan shu vaqtgacha (1937-yilgacha) Cho‘lpon “Dubrovskiy”dan tashqari beshta asar tarjima qilgani ma’lum bo‘ladi. Cho‘lpon nutqiga e’tibor berilsa, Moskvadan kelganiga ikki yil bo‘lgan, demak, uning 1935–1937-yillar oralig‘idagi ijodiy ishlari haqida so‘z bormoqda.

D.Quronov va I.Madg‘oziyev maqolasida Cho‘lpon “Dubrovskiy” tarjimasini aynan 1936–1937-yillarda emas, undan ancha avval amalga oshirgani qayd etilgan [8. B. 37]. Yangilik shundaki, D.Quronov, I.Madg‘oziyev Moskvaga ilmiy ekspeditsiyasi davomida O.Sharafiddinov va J.Sharifiylar tayyorlagan “Adabiyot” darsliklarining 1935-yil va 1937-yilda chop etilgan nashrlarini topdilar [16; 17]. Eng muhim jihati, birinchi darslikdagi qissadan parcha so‘ngiga “Cho‘lpon tarjimasi” deb yozilgan. “Dubrovskiy” tarjimasining hozirgacha ma’lum nashrlari ichida Cho‘lpon nomi tarjimon sifatida ko‘rsatilgan yagona nashr shu hisoblanadi. Keyingi darslikda tarjimon nomi ko‘rsatilmagan. 1935-yildagi darslikka kiritilgan “Dubrovskiy” qissasi qisqartirilgan holda bo‘lib, maqola mualliflari tarjimon Cho‘lpon ekanini tasdiqlaydigan yana bir qancha fakt va dalillarni keltiradilar. Ushbu ma’lumotlar umumlashtirilganda Cho‘lpon “Dubrovskiy” qissasini 1935-yilgacha tarjima qilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, hozirgacha “Dubrovskiy” qissasi 1930-yilda I.Obid, 1935-, 1937-, 1939-yillarda [19] Cho‘lpon hamda 1955-, 1956-yillarda Ma’ruf Hakim tarjimasida chop etilgan. Yana shuni qayd etish muhimki, O.Sharafiddinov va J.Sharifiylar tomonidan tayyorlangan “Adabiyot” darsligidagi qissani Cho‘lpon hayotligi davridagi hamda uning o‘zi tomonidan tayyorlangan nusxasi deyish mumkin.

“Adabiyot” darsligi (1935) o‘rta maktablarning 5-sinfi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, titul varag‘ida “Qaytadan ishlangan ikkinchi bosmasi” degan izoh bor. Bundan mazkur sanadan avvalgi yillarda ham darslikning chop etilgani anglashiladi. 1937-yildagi darslikka esa “Qaytadan ishlangan 4-nchi nashri” deb yozib qo‘yilgan bo‘lib, darslik mualliflarining nashr haqida alohida izohi ham bor: “5-nchi sinf “Adabiyot” darsligining bu yilgi 4-nchi nashri O‘zbekiston SSR MXKning 1937/1938 o‘quv yili uchun chiqargan adabiyot programmasi asosida qaytadan ishlandi. Rus adabiyoti materiallari ishlanganda V.V.Golubkov va L.S.Mirskiy o‘rtoqlarning RSFSR MXK tasdiqlagan 5-nchi sinf “Adabiyot” darsligidan foydalanildi. A.S.Pushkinning turmushi va ijodiyoti qayta ishlandi”. Keltirilgan izohlar va yil sanalaridan mantiqqa ko‘ra darslikning 3-nashri 1936-yilga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, mazkur “Adabiyot” darsliklari har yili chop etilgan. O‘quv materiallarining har yili biroz tahrir qilinib, aynan takror chop etilishi hisobga olinsa, 1936-yilgi darslikda ham Cho‘lpon tarjimasi takror kiritilgan deb taxmin qilish mumkin. Bu esa 1936-yilgi darslik nashri topilsa, “Dubrovskiy” tarjimasi matnlarini qiyoslash imkoniyatini tug‘dirar edi. 1937-yilgi darslikda “Dubrovskiy”ning tarjimoni ko‘rsatilmaslik sabablarini D.Quronov va I.Madg‘oziyevlar quyidagicha izohlaydilar: “...darslik tayyor bo‘lgan, bosishga ruxsat berilishi kutilayotgan yoki hatto berilgan (aslida tezda ruxsat berilishi kerak edi, chunki rejaga ko‘ra darslik 1-sentyabrgacha bosilishi va tarqatilishi lozim bo‘lgan) bir vaqtda Cho‘lpon hibsga olingan. Darsliklar chop etishning qat’iy muddatli rejasi bor, bas, noshirlarda vaqtida ulgurish uchun faqat bitta yo‘l – tarjima matnini qoldirib, tarjimon ismini chiqarib tashlash bor, xolos”[8. B. 41]. Yana bir tomoni ham borki, ayni shu yilda boshlang‘ich maktablarning 4-sinfi uchun chop etilgan “Adabiyot xrestomatiyasi” (Tuzuvchi J.Sharifiy)ga Pushkinning “Bandi”, “Bir pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”, M.Gorkiyning “Vanka”, “Birinchi may” (“Ona” romanidan parcha) asarlari tarjimasi kiritilgan va har bir tarjima asar ostida “Cho‘lpon tarjimasi” izohi mavjud. Yuqoridagi maqola mualliflari fikrlari va taqqoslashni bu darslikka ham tatbiq etadigan bo‘lsak, “Adabiyot xrestomatiyasi” darsligi 1937-yil 28-fevralda bosmaxonaga berilgan va 9-mayda bosishga ruxsat etilgan. Ya’ni, mazkur darslik Cho‘lpon hibsga olingunga qadar chop etilgan edi.

Kuzatishlarimizdan 1935-, 1937-yillardagi “Adabiyot” darsligidagi qissa va uning 1939-yilgi alohida nashri Cho‘lpon tarjimasi ekani ma’lum bo‘ldi. Qissa tarjimasining to‘liq shakli 1939-yilda “Nafis adabiyot davlat nashriyoti”da o‘n ming nusxada alohida kitob holida chop etilgan. Kitobga M.Hakimov mas’ul muharrirlik va Shomahmudov texnik muharrirlik qilgan [19]. Yuqorida keltirilgan ikkala darslik va to‘liq nashr qiyoslanganda tarjima asari muallifi bitta, ya‘ni Cho‘lpon ekani ma’lum bo‘ladi.

Qissa tarjimasining uchala nashri solishtirilganda, ularda ayrim farqlar ko‘zga tashlanadi[3]. Asar quyidagi jumla bilan boshlangan:

“*Birmuncha yil bundan burun* o‘ziga qarashli *qo‘rg‘on*larning birida *ruslarning qadimgi badavlatlaridan*...” (1935).

“*Bundan birnecha yil burun* o‘ziga qarashli ye*r-mulk*larning birida *qadimgi rus barinlaridan*...” (1937).

“*Bundan birmuncha yil burun o‘ziga qarashli yer-mulklarining birida qadimgi rus*...” (1939).

Dastlabki so‘z birikmasidagi so‘zlar o‘zaro o‘rin almashgan bo‘lsa, “старинный русский барин”

[3] Uchala nashrni shartli ravishda yillar ketma-ketligida birinchi (1935), ikkinchi (1937), uchinchi (1939) nashr deb yuritamiz.

izohlovchisi uch xil tarjima qilingan. Bizningcha, bu birikma ikkinchi nashrdagi "*qadimgi rus barini*" shakliga ko‘proq mos keladi. Birinchi nashrda Troyekurov ko‘p o‘rinda ismi-sharifi bilan emas, otlashgan sifat orqali "*badavlat*" deb atalgan. Ikkinchi nashrda "*to‘ra*" ham deb keltiriladi. Bu qahramon tavsifida "*uncha o‘tkir emas miyasi*" (1935) deyilgan bo‘lsa, ikkinchi nashrda "*o‘tmasroq miya*" deb ta’riflanadi (1937), uchinchisida esa (1939) bu jumla tushirib qoldirilgan.

Cho‘lpon tarjimasida hozirgi lug‘atimizda mavjud "mezbon" so‘zi "izmon" shaklida keladi. Ikkinchi nashrda bu so‘z tushirib qoldirilgan. Mazkur so‘z Andijon shevasida hozirda ham qo‘llanadi.

Qissada Troyekurovning uyida cho‘ri saqlashi haqidagi o‘rin 1935-, 1937-yillardagi nashrlarda uchramaydi, faqat uchinchi nashrda bor. Chunki darsliklar maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu ma’lumotlar sho‘ro ta’lim va tarbiyasiga muvofiq kelmas edi, albatta. 1939-yilgi nashrda quyidagicha keltiriladi: "Uning uyining bo‘lmalaridan birida o‘z jinslariga munosib bo‘lgan qo‘l hunari bilan mashg‘ul bo‘lib 16 xizmatkori yashardi. Bo‘lmaning derazalariga yog‘och panjara to‘sulgan, eshiklari qulf bo‘lib, bularning kalidlari Kirila Petrovichda turardi. Yosh cho‘rilar esa, ruxsat etilgan soatlardagina ikki kampir nazorati ostida boqqa aylangani chiqishardi. Kirila Petrovich bularni vaqt-vaqti bilan erga berar, erga chiqqanlarining o‘rniga yangilari kelardi".

Uchala nashrda ham ayrim fe’l shakllarining turlicha berilishi kuzatiladi. Masalan, *qolmas edi – qolmasdi, duchor bo‘lar edi – duchor bo‘lardi, turardi – turadi – turardi, buyruq qilingan edi – buyruq berilgan edi – buyruq qilingan edi*. So‘z, so‘z birikmasi va boshqalarda ham farqlar ko‘zga tashlanadi. *Qo‘rg‘on – mulk, badavlat – Troyekurov – Kirila Petrovich, erta kundan – ilgaridan – ertaroq, it tilida – ko‘ppak tillarida – ko‘ppak tilida, noz-u nig‘mat – noz-u ne’mat – noz-u nig‘mat, bir kun burun – o‘sha kundan bir kun ilgari, itoat – bo‘ysunish, izmon – xo‘jayin, butun-butun bu ishlarni – butun ishlarni, qaltis – qo‘rs, muni – buni, badavlat – to‘ra, dasturxon – ovqat stoli, xo‘jayin – boy, ayoz – sovuq, arg‘uvon – lipa.*

Matnlar o‘zaro qiyoslanganda, 1935- va 1939-yildagi nashrlar ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xshashligi kuzatiladi. Masalan, ota – Andrey Gavrilovich Dubrovskiyning o‘z o‘g‘li haqida Troyekurovga aytgan gapida "*kambag‘al dvoryanning kambag‘al bir dvoryan qiziga*" jumlasi 1937-yilgi darslikda "*kamdavlatli dvoryanning kamdavlatli bir dvoryan qiziga*" shaklida, 1939-yildagi nashrda birinchi nashrdagi kabi, salgina o‘zgartirish bilan *"kambag‘al dvoryanning kambag‘al bir dvoryan qiziga"* shaklida berilgan. Dvoryan qiz nazarda tutilganda esa, *"ayalcha – erka o‘sgan xotincha – ayalcha"* kabi shaklda uchraydi. Asliyatda bu so‘z "избалованная бабенка"dir.

Qo‘shma gapning o‘zgargan shakllari: "*O‘zining bu go‘zal korxonasiga badavlat o‘zi ham faxr qilib qarar, o‘z mehmonlari oldida uning bilan maqtanish paytini sira qo‘ldan chiqarmas, u mehmonlarning har biri ham bu itxonani kamida yigirma marta ko‘rgan edi"* (1935) – bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap. "*O‘zining bu go‘zal korxonasiga Kirila Petrovich o‘zi ham faxr qilib qarar, o‘z mehmonlarining har biri bu itxonani kamida yigirma marta ko‘rgan bo‘lsa ham, ular oldida uning bilan maqtanish paytini sira qo‘ldan chiqarmas edi"* (1937) – to‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap. "*O‘zining bu go‘zal korxonasi bilan Kirila Petrovich o‘zi ham faxrlanib qarar, har biri bu itxonani kamida yigirma marta ko‘rgan bo‘lsa ham, o‘z mehmonlari oldida uning bilan maqtanish paytini sira qo‘ldan bermas edi"* (1939) – ega ergash gapli qo‘shma gap.

Gaplarning tarkibi va qurilishida ham asliyatdagidan farqli murakkablashgan gap konstruksiyasi tuzilgan. Dubrovskiyning ovchiligi haqidagi qism asliyatda shunday berilgan: "Он был горячий охотник. Его состояние позволяло ему держать только двух гончих и одну свору борзых; он не мог удержатся от некоторой зависти при виде сего великолепного заведения" [20. В. 107].

Birinchi nashrda: "*U, ovchilikka juda-juda berilgan odam edi, uning davlati bir juft ovchi va bir gala tozi it saqlashga imkon berardi, xolos – bu ajoyib korxonani ko‘rgandan keyin, u jindakkina rashk qilishdan o‘zini tiyalmadi"* (1935). Ikkinchi nashrda: "*U, ovchilikka juda berilgan odam bo‘lsa-da, uning davlati bir juft ovchi it, bir gala tozi it saqlashga imkon berardi, xolos – shu uchun bu ajoyib korxonani ko‘rgandan keyin, u jindakkina rashk qilishdan o‘zini tiyalmadi"* (1937). Uchinchi nashrda: "*U ovchilikka juda berilgan odam edi. Uning davlati bir juft ovchi va bir gala tozi it saqlashga imkon berardi, xolos – bu ajoyib korxonani ko‘rgandan keyin, u jindakkina rashk qilishdan o‘zini tiyalmadi"* (1939).

Ko‘rinadiki, ovchilikka ishqiboz bo‘lgan qahramon Pushkinda "горячий охотник" deb tavsiflangan bo‘lsa, Cho‘lpon "ovchilikka juda-juda berilgan" deb tarjima qilgan. Bunda "juda" so‘zining takrori hamda "berilgan" (odam) sifatdoshining qo‘llanishi "biror narsaga ishqiboz bo‘lgan" degan mazmunni anglatadi. Keyingi ikki nashrda "juda" so‘zi bir marta berilgan. Asliyatdagi mazkur bir sodda va bir qo‘shma gap birinchi nashrda qo‘shib yuborilgan, bu esa mas’ul muharrir yoki nashriyotning tahriri bo‘lishi mumkin. Ikkinchi nashrdagi ushbu jumlada "*-da*" ta’kid yuklamasi ("*juda berilgan odam bo‘lsa-da*") qo‘shib qo‘yilgan. Lekin asliyatda ta’kid yuklamasi mazmuni yo‘q.

Shu bois bo‘lsa kerak, uchinchi nashrda bu holat takrorlanmaydi. Sodda va qo‘shma gapning asliyatdagi kabi ko‘rinishi ham ushbu nashrda saqlangan. Pushkinda *“он не мог удержатся от некоторой зависти”* jumlasidagi *“зависть”* aynan “hasad” deb tarjima qilinadi. Biroq Dubrovskiyning ovchilikka ishqibozligini ta’sirliroq qilib yetkazish uchun Cho‘lpon “rashk” so‘zini qo‘llaydi: *“u jindakkina rashk qilishdan o‘zini tiyalmadi”*. Rashk so‘zi muhabbat bilan yonma-yon tushuncha, tuyg‘u ekanligini hisobga olsak, bu so‘z orqali kitobxon asar qahramonining ovchilikka ishqibozligining darajasi kuchliligini to‘laroq his qila oladi. Dubrovskiyning ayni shu holati ikki do‘st o‘rtasida ziddiyatni keskinlashtiradi. Asar syujetidagi tugun ham xuddi shudir.

Qissa tarjimasida fe’l zamonlarining ham o‘zgargan holda berilishi kuzatiladi:

“Ba’zi xonalar oldida to‘xtab – goh itlarning sog‘ligini *so‘radi*, goh birmuncha qattiq va haqli tanbehlar *qildi*, goh bo‘lsa tanish itlarni chaqirib olib *erkalatdi* va ular bilan *gaplashdi”* (1935).

“Ba’zi xonalar oldida to‘xtab, dam itlarning sog‘ligini *so‘radi*, dam birmuncha qattiq va haqli tanbehlar *qildi*, dam bo‘lsa tanish itlarni chaqirib *oldi-da*, *erkalata-erkalata* ular bilan *gaplashdi”* (1937).

“Ba’zi itxonalar oldida to‘xtab goh itlarning sog‘ligini *so‘rar*, goh birmuncha qattiq va haqli tanbehlar *qilar*, goho tanish itlarni chaqirib olib *erkalatar* va ular bilan *gaplashardi”* (1939).

Andrey Dubrovskiyning xatidagi *“Ваших холопьев”* birikmasidagi ikkinchi so‘z 1937-yilgi nashrda birlikda, ya’ni “laganbardoringiz” shaklida berilgan. Qolgan ikki nashrda “laganbardorlaringiz”, ya’ni ko‘plik shaklidadir. Troyekurovning Andrey Dubrovskiysiz ovga chiqish holati esa uchala nashrda uch xil shaklda berilgan: *Lekin ov yurishmadi – Lekin ov o‘ngmadi – Lekin o‘ngidan kelmadi.*

Cho‘lponning boshqa tarjimalarida uchraydigan sheva so‘zlari mazkur qissada ham faol qo‘llangan. Troyekurovning ovga chiqqani tasviridagi “dala” so‘zi birinchi va uchinchi nashrda “*tala*”, ya’ni shevaga xos ko‘rinishda uchraydi. Yoxud Cho‘lpon uslubining alohida o‘ziga xos belgisi sifatida “*uziqara*” (yoki *usqara*) sheva so‘zining qo‘llanishini ham shu qissada uchratamiz. Dubrovskiylarning enagasi Yegorovna Troyekurovni “*Болно спесив Кирила Петрович!*” deydi. Uning takabbur va dimog‘dor odam ekanini Cho‘lpon shunday tarjima qiladi: *“Juda uzi qara odam bu Kirila Petrovich, ammo mening Grishkam unga “Yo‘qol, qari ko‘ppak! Chiq hovlidan!” deganda, dumini qisib qoldi-ku!”* Asliyatdagi “*спесивый человек*” o‘zbek tilida “dimog‘dor”, “izzattalab”, “shuhratparast” ma’nolarini bildiradi. Buni Cho‘lpon shevaga xos “uziqara” so‘zi bilan beradi.

Troyekurov va Andrey Dubrovskiy o‘rtasiga tushgan sovuqchilik “*xitlik*” deb o‘girilgan bo‘lib, bu ham shevaga xos so‘zdir. “*Deraza*” – “*teraza*” so‘zlari ham shular jumlasidandir. “*Gaplashmasidi”, “...holda emasidi”* so‘zlari ham Andijon shevasiga xos shaklda bo‘lib, uchinchi nashrda shu tarzda uchraydi. “*Edi*” to‘liqsiz fe’lini yetakchi fe’l tarkibiga qo‘shib, “*edi*” so‘zidagi “e”ning “*i*”ga o‘zgartirib talaffuz qilinishi Andijon shevasining so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, hozirgi kunda ham mavjud. Vladimir Dubrovskiyning onasi surati tasvirida “*erta b(i)langi oq ko‘ylakda*” so‘zi qo‘llangan: *“Rassom uni – zina panjarasiga suyangan holda erta bilangi oq ko‘ylakda hamda sochlari orasida bittagina qizil gul bilan tasvir qilgan edi”*. “Erta bilangi” – shevaga xos so‘z bo‘lib, bugungi kunda ham Farg‘ona vodiysi oddiy so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi hamda “ertalabki” ma’nosini bildiradi.

Cho‘lpon tarjimasida uy-joy, hovli, uy ma’nosini bildiradigan “*qo‘ra*” so‘zi qo‘llanadi. Masalan, A.Chexovning hikoyasi sarlavhasi ham Cho‘lpon tomonidan “*Eski qo‘ra*” deb tarjima qilingan. Qissaning birinchi nashrida “*qo‘ra*” shu shaklda qo‘llangan bo‘lsa, keyingi ikkitasida bu so‘z “hovli”ga almashtirilgan. “*Qo‘ra*” so‘zi eski, arxaik so‘z bo‘lib, Cho‘lpon o‘tmish davr ruhini, Pushkin tasvirlayotgan davr muhitini aks ettirish maqsadida ham shu kabi arxaik, tarixiy so‘zlarni qo‘llagan. Xuddi shu so‘zga ma’nodosh bo‘lgan “*qo‘rg‘on*” so‘zi ham ishlatilgan. Biroq 1937-yilgi nashrda bu so‘z “*yer-joyi*” deb tahrir qilingan. Shuningdek, birinchi va uchinchi nashrda “*asir*” so‘zi keltirilgan, 1937-yilgi nashrda esa “*bandi*”ga almashtirilgan.

Troyekurov nutqining o‘ziga xosligini ko‘rsatish uchun Cho‘lpon tarjimada iboralardan ham foydalanadi. Shabashkin bilan muloqotda Troyekurov: “Здорово, *как бишь тебя зовут*, – *сказал ему Троекуров, – зачем пожаловал?”* deydi. Bu esa *“Ha, omonmisan, – dedi badavlat, – oting qurg‘ur nima, – nima yumush bilan kelding?”* tarzida tarjima qilingan.

Birinchi nashrda 2–3-boblar tushirib qoldirilib, 4-bobdan davom etgan. Ikkinchi va uchinchi nashrlarda bu boblar ayrim o‘zgarish va farqlar bilan berilgan. Xususan, Troyekurovning unvoni birida “*general anshef*” bo‘lsa, ikkinchisida “*general*” tarzida tahrir qilingan. Ikkinchi nashrdagi *-gach* payt ravishi qo‘shimchasi, *-da* o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi keyingi nashrda boshqa vosita bilan almashgani kuzatiladi: *shaharga borgach – shaharga borgandan keyin, uyezd sudi mahkamasida hozir bo‘ldi – uyezd sudi mahkamasiga hozir bo‘ldi.* Dubrovskiyning sudga kelgandagi holati ham ikkala nashrda ikki xil gap shaklida berilgan: *Unga e’tibor qilgan kishi bo‘lmadi – unga hech kim e’tibor qilmadi.* Sud kotibi o‘qib

bergan hukm ikkinchi nashrda juda ixcham shaklda, qisqartirib berilgan bo‘lsa, uchinchi nashrda to‘liq keltirilgan.

Troyekurovning kayfiyat-holatini ifodalashda tarjimada o‘zbekcha “*oshiga zahar solmoq*” iborasi ikkinchi nashrda “*to‘y oshi*” shaklida, uchinchi nashrda esa “*shirin oshi*” tarzida tahrirga uchragan. Andrey Dubrovskiyning suddan keyingi sog‘ligi haqidagi o‘rinda ikkinchi nashrda *“kasallik yotog‘iga yiqilib qolgan”* deyilgan bo‘lsa, uchinchi nashrda *“kasallik bilan ko‘rpa-to‘shak qilib yotar edi”* deb o‘zgartirilgan. Kasalning biroz tetiklashganini bildirishda shevaga xos “*sermalib*” so‘zi qo‘llangan: *“Kechgacha kasal biroz sermalib o‘ziga keldi”*. Bu so‘z uchinchi nashrda tushirib qoldirilgan.

Ikkinchi nashrda ayrim gaplarning qurilishi usluban ravon emasligi kuzatiladi: “*Ertasi kuni uni Kistenevkaga olib ketdilar, lekin bu qishloq endi uniki bo‘lishdan chiqqan hisobida edi”*. Uchinchi nashrda u quyidagicha tahrir qilingan: “*Ertasi kuni uni endi uning tasarrufida bo‘lmagan Kistenevka qishlog‘iga olib ketdilar”.*

Shuningdek, gapda so‘zlarning tushib qolishi ham uchraydi: “*Oradan biroz vaqt o‘tdi, ammo bechora Dubrovskiy salomatlik vajhidan hali ancha og‘ir (?) tortardi”.* “Og‘ir” so‘zidan keyin, bizningcha, “dard” so‘zi kelishi kerak. Bu gap uchinchi nashrda *“Oradan biroz vaqt o‘tdi, ammo bechora Dubrovskiyning salomatligi uncha yaxshi emas edi”* shaklida berilgan. Asliyatda bo‘lsa shunday*: “Прошло несколько времени, а здоровье бедного Дубровского всё еще было плохо”.* Ko‘rinadiki, Dubrovskiyning salomatligi jiddiy yomonlashgan edi, shuning uchun bu jumla “og‘ir dard” birikmasi qo‘shilgan tarzda birinchi nashrdagi kabi yoki: *“Oradan biroz vaqt o‘tdi, ammo Dubrovskiyning sog‘ligi hali ham yomon edi”* kabi tarjima shaklini olishi kerak.

Andrey Dubrovskiy yotib qolganda unga Yegorovna degan xizmatkor ayol enagalik qiladi. Uchinchi nashrda u haqda *“bir yaxshi kampir”* deb berilgan bo‘lib, “bir” so‘zi ortiqchadir. Agar bir so‘zi ishtirok etsa, “qaysidir bir kampir” ma’nosi tushunilib, kampirning begonaligi anglashilib qoladi. Ikkinchi nashrda *“Yegorovna degan yaxshi kampir”* shaklida to‘g‘ri berilgan.

Qo‘shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarning o‘rinlari almashinishi ikkinchi va uchinchi nashrlarda kuzatiladi: “*U darhol otasining oldiga jo‘nashga, agar kasal otaning ahvoli uning o‘sha yerda bo‘lishini talab qilsa, ariza berib xizmatidan chiqishgacha jazm qildi”.* Uchinchi nashrda: “*Agar kasal otaning ahvoli uning o‘sha yerda bo‘lishini talab qilsa, u darhol otasining oldiga jo‘nashga, ariza berib xizmatidan chiqishgacha jazm qildi”.* Bizningcha, gap qurilishining uslubiy ravonligi ikkinchi nashrda ta’minlangan.

Otasining kasal ekanligi haqida xabar olgan Vladimir Dubrovskiy xizmat joyiga “otpuska uchun ruxsat so‘rab ariza” yozgani uchinchi nashrda bor, lekin ikkinchi nashrda “otpuska uchun” so‘zlari tushirib qoldirilgan. Asliyatda esa bu so‘zlar mavjud. Vladimir Dubrovskiyning o‘z qishlog‘iga qaytayotgan vaqtdagi holati tasvirida “*siqintili turmush*” (uchinchi nashrda: “*siqintli turmush*”), ya’ni qayg‘uli, g‘amgin turmushni ko‘z oldiga keltirgani aytiladi. Bu yerda Cho‘lpon tarjimada keltirgan “*siqinti*” sof turkiy so‘z bo‘lib, hozirgi turk tilida shu shaklda saqlanib qolgan hamda so‘zlashuvda faol qo‘llanadi. Antonning Vladimir Dubrovskiyga aytgan so‘zlarida “*Xipchin bilan o‘tin yorib bo‘ladimi?*” iborasi qo‘llangan. Bu esa asliyatda *“плетью обуха не перешибешь”* deb berilgan bo‘lib, uchinchi nashrda *“Sher bilan qashqir tenglasharmidi, qalay”* shaklida berilgan hamda satr osti havolada *“Aslda xipchin bilan o‘tun yorib bo‘ladimi?”* deb izohlangan.

Cho‘lpon rus tilidagi iboralarni o‘zbek tilida ifodalashda shu tilda mavjud iboralarga mazmunan muvofiq keladigan shakllarni almashtirgan. Bunda Kirila Petrovichdan manfaat qidiruvchilarning odat, fe’l-atvori, o‘zaro munosabatini ta’riflash uchun Dubrovskiylarning eski kucheri Anton tomonidan “*было бы корыто, а свини-то будут*” degan ibora aytiladi. Mazkur maqol rus xalqi turmush tarzi, uy xo‘jaligi, kundalik turmush odatlaridan kelib chiqib yaratilgan. Shu bois Cho‘lpon mutarjim sifatida o‘zbek kitobxoni uchun tanish bo‘lgan ibora bilan almashtiradi: *“oxur bo‘lsa ot topilaveradi emasmi”*. Uchinchi nashrda esa “oxur bo‘lsayla ot topilaveradi emasmi” shaklida kelgan. “Bo‘lsayla” Andijon shevasiga xos bo‘lib, *-la* qo‘shimchasi kuchliroq ta’kidni bildiradi. Yana shu qahramon nutqidagi *“да ведь на чужой рот пуговицы не нашьешь”* iborasi *“birovning og‘ziga tugma qadab bo‘lmaydi-ku”* deb aynan tarjima qilingan.

Urf-odat va diniy marosim nomlari tarjimasida ham Cho‘lpon o‘zbek kitobxoniga tushunarli bo‘lgan atamalarni qo‘llaydi. Anton nutqidagi “*на крестинах нашего старосты*” jumlasini *“bizning oqsoqolnikida nomto‘yi bo‘lib edi”* deb o‘giradi. Odatga ko‘ra, xristian dinidagi *“крещение”* marosimida yangi tug‘ilgan chaqaloqqa ism qo‘yiladi. Ushbu marosimni Cho‘lpon “nomto‘yi” deb o‘girgan. Uchinchi nashrda Vladimir Dubrovskiyning o‘z uyi *“qizil tomli oddiygina surrang bir bino” (asliyatda: “серенький домик с красной кровлей”)* deb tarjima qilingan. Ikkinchi nashrda esa “*surrang*” so‘zi tushib qolgan. Bu so‘z hozirgi o‘zbek tilida kulrangni anglatadi, u Cho‘lponning nafaqat tarjimalari, balki o‘z asarlarida ham qo‘llangan.

Ko‘rinadiki, Cho‘lpon “Dubrovskiy” tarjimasida yoki boshqa tarjimalarda ham asar voqealari ro‘y berayotgan davr ruhini, ijtimoiy tuzumni, qahramonlar ruhiyatini, ularning ijtimoiy qatlamga mansubligini ifodalash uchun so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘lidan bormaydi, aksincha, o‘zbek tilida mavjud muqobil so‘z, ibora, tushunchalarni tanlaydi. Shuningdek, ijodkor sifatida ham yangi so‘zlar topib, ularni tarjima matniga olib kiradi. Ozod Sharafiddinov adibning bu boradagi mahoratini e’tirof etib: “Cho‘lpon tarjimalari o‘zining qimmatini mutlaqo yo‘qotmagan holda bugun ham tarjimonlik dorilfununi sifatida yashashda davom etmoqda. Cho‘lpon biron boshqa janrda ijod qilmaganida ham tarjimalarining o‘ziyoq uning nomini o‘zbek adabiyoti tarixining eng mo‘tabar joyiga yozib qo‘yish uchun kifoya qilardi” [1. B. 108] degan edi.

Xulosa

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asrning 20-yillarida o‘zbek tarjimachiligining tamal toshini qo‘ygan jadidlardan edi. U jahon adabiyotining ko‘plab yirik namoyandalari asarlarini, jumladan, Aleksandr Pushkinning “Dubrovskiy” qissasini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Cho‘lpon qissani aynan Pushkin vafotining 100 yilligi arafasida emas, 1935-yildan ham avvalroq kirishganligi ma’lum bo‘ladi. 1937-yildan keyin Cho‘lpon nomi tarjimon sifatida tilga olinmadi, tarjimalari esa uning nomini ko‘rsatmasdan nashr qilinaverdi. “Dubrovskiy” qissasining tarjimasi uchta nashrda mavjudligi aniqlanib, ulardagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi. 1939-yildagi alohida nashr qissa tarjimasining to‘liqroq varianti ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur qissa tarjimasida Cho‘lpon o‘tmish davr ruhini aks ettirish uchun tarixiy va arxaik so‘zlardan foydalangan bo‘lsa, xalq jonli so‘zlashuv uslubiga xos iboralar, shevaga xos so‘zlarni qo‘llab, qahramonlar tilini individuallashtirgan hamda ularning qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligini ham ko‘rsatgan. “Dubrovskiy” qissasi tarjimasini nashrga tayyorlashda 1935-, 1937- va 1939-yillardagi tarjimalarga tayanib, mukammal matnni tiklash mumkin. Shuningdek, yana boshqa nashrlarning topilish ehtimoli bo‘lib, ularning aniqlanishi kelajakda mukammal tarjima matnni yaratish imkonini beradi. Cho‘lpon tarjimalari so‘zma-so‘z emas, balki badiiy tarjima bo‘lib, barcha davr o‘zbek kitobxonlarini jahon adabiyoti bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qiladi, ularga badiiy-estetik zavq beradi. Cho‘lpon tarjimalari o‘zbek xalqining ma’naviy merosi sifatida abadiyatga daxldor.

Adabiyotlar:

1. *Шарафиддинов О.* Чўлпон. – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 112 б.
2. *Саломов Ғ.* Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 385 б.
3. *Шарипов Ж.* Шеърий таржиманинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1959. – 155 б.
4. *Шарипов Ж*. Бадиий таржималар ва моҳир таржимонлар. – Тошкент: Фан, 1972. – 240 б.
5. 14. *Шарипов Ж*. Некоторые проблемы поэтического перевода с русского на узбекский язык. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1958. – 145 с.
6. *Владимирова Н.* Пушкин Чўлпон таржимасида // Жаҳон адабиёти, 2008. –№ 7. – Б. 133–139.
7. *Каримов Н.* Чўлпон. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 464 б.
8. *Қуронов Д., Мадғозиев И*. Чўлпон публицистикаси ва таржимонлик фаолиятига доир янги аниқланган манбалар хусусида. // Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар, 2022. – № 7 (67). – Б. 37–45.
9. Чўлпоннинг бадиий олами. / Масъул муҳаррир Н.Каримов. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1994. – 129 б.
10. *Раҳимов Т.А*. Чўлпоннинг таржимонлик маҳорати (А.С.Пушкиннинг шеърий ва драматик асарлари таржималари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1993. – 143 б.
11. *Улмасов Р*. Переводческое мастерство Чулпана и проблема преемственности узбекских переводах романа М.Горкого “Мать”: Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 153 с.
12. *Муҳаммаджонов М*. Турмуш уринишлари. – Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1964. – 180 б.
13. Ўзбекистонда бадиий таржима тарихи. Мақолалар тўплами. – Тошкент: Фан, 1985. – 176 б.
14. Ўзбек совет адабиёти. 2 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1971. – 680 б.
15. *Чўлпон А*. Асарлар. 4 жилдлик. 4-жилд. / Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Д.Неъматова). – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 384 б.

16. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). / Tuzuvchilar: O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 2-bosmasi. – Toshkent: O‘zSSR davlat nashriyoti, 1935. – 162 b.
17. Adabiyot. (O‘rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik). Tuzuvchilar O.Sharafiddinov, J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 4-nashri. – Toshkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti, 1937. – 162 b.
18. Adabiyot xrestomatiyasi. (Boshlang‘ich maktablar uchun. 2-bo‘lim. Boshlang‘ich maktablarning 4-sinfi uchun). Tuzuvchi J.Sharifiy. Qaytadan ishlangan 5-nashri. – Toshkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti, 1939. – 162 b.
19. *Pushkin A.C.* Dubrovskiy. – Toshkent: O‘zGIXL, Nafis adabiyot davlat nashriyoti, 1939. – 71 b.
20. Сочинения А.Пушкина. Дубровский. Том.10. – Санкт-Петербург, 1840. – 314 с.

CHULPAN’S TRANSLATION WORK AND ABOUT “DUBROVSKIY” TRANSLATION

Dildora Abdullayeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 75-84.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: translation, literary translation, the history of Uzbek translation, Chulpan’s skill as a translator.

The purpose of the article yexamines the unique role of Abdulhamid Chulpan in Uzbek literary translation, as well as his work and the skill of the translator. The translation of Pushkin’s novella “Dubrovsky”, performed by Chulpan, is analyzed on the basis of the yeditions of 1935, 1937, 1939.

Material and methods. In the research of Chulpon’s translation activity and skills, in particular, in the translation of A. Pushkin’s story, textbooks and separate publications of 1935, 1937, 1939 and information from other literature, periodicals, and documents were relied upon. Comparative-typological, comparison, analysis, synthesis, generalization methods were used to solve the problem.

Result. Chulpan founded the Uzbek School of art translation in the 20s and 30s of the 20th century. Hundreds of translations of poetic, prose, dramatic works, which he turned from world literature into Uzbek, were made with high skill. The beginning of his work in the literature, where Chulpan creative biography was studied, is determined by the period 1912-1914. Referring to the fact that Adib was also a prolific creator in the field of artistic translation, it can be considered that the years mentioned were also a preparatory stage for the penetration of translation. Chulpan turned the works of the world Adib into Uzbek by means of the Russian language. Chulpanologists note that he knew the Russian language in such a perfect way as he knew his native language.

The translation of Pushkin’s verse “Dubrovsky” by Chulpan has been noted by literary scholars, as yevidenced by Chulpan’s speech at the writers ‘ Soyuz of Uzbekistan. However, the belonging of the translation of the text to the Chulpan Pen still remained speculative.

Chulpan made the translation of” Dubrovsky “ not yexactly in 1936-1937, but much yearlier. The most important aspect is that an yexcerpt from the first textbook verse reads “Chulpan translation” to the last. This is the only publication in which the name Chulpan is listed as a translator within certain yeditions of the” Dubrovsky” translation up to this time. The next textbook does not name the translator. The short story “Dubrovsky”, included in the textbook of 1935, is summarized, and the authors of the article provide several more facts and facts that confirm that the translator is a Chulpan. When these data are summarized, it can be concluded that Chulpan translated the verse “Dubrovsky” until 1935.

Summary. Abdulhamid Suleiman son Cholpon was one of the founders of Uzbek translation in the 20s of the 20th century. He skillfully translated the works of many great figures of world literature, including Alexander Pushkin’s short story «Dubrovsky» into Uzbek. It was determined that the translation of the story «Dubrovsky» exists in three editions, and it was concluded that according to their analogical and different aspects, they belong to the style of one translator. A separate edition in 1939 turned out to be a more complete version of the story’s translation.

References:

1. Sharafiddinov, O. (1991). *Cho‘lpon* [Chulpan]. Tashkent: Cho‘lpon.
2. Salomov, G‘. (1966). *Til va tarjima* [Language and translation]. Tashkent: Fan.
3. Sharipov, J. (1959). *She’riy tarjimaning ba’zi masalalari* [Some issues of poetic translation]. Tashkent: Fan.
4. Sharipov, J. (1972). *Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar* [Artistic translations and skillful translators]. Tashkent: Fan.
5. Sharipov, J. (1958). *Nekotorye problemy poeticheskogo perevoda s russkogo na uzbekskij yazyk* [Some problems of poetic translation from Russian into Uzbek]. Tashkent: Publishing house of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
6. Vladimirova, N. (2008). Pushkin Cho‘lpon tarjimasida [Pushkin in the Chulpan translation]. *Jahon adabiyoti*. 7. Pp. 133-139.
7. Karimov, N. (2003). *Cho‘lpon* (ma’rifiy roman) [Chulpan (educational novel)]. Tashkent: Sharq.
8. Quronov, D., Madg‘oziev, I. (2022). Cho’lpon publitsistikasi va tarjimonlik faoliyatiga doir yangi aniqlangan manbalar xususida [About the newly identified sources regarding Chulpan publicism and translation activities]. *Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar,* 2022. 7(67). Pp. 37-45.
9. Karimov, N. (ed.) (1994). *Cho‘lponning badiiy olami* [The artistic world of Chulpan]. Tashkent: Fan.
10. Rakhimov, T.A. (1993). Perevodcheskoe masterstvo Chulpana [Chulpan’s translation skills]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
11. Ulmasov, R. (1991). Perevodcheskoe masterstvo Chulpana i problema preemstvennosti uzbekskih perevodah romana M.Gorkogo ‘Mat’ [Chulpan’s translation skills and the problem of continuity in Uzbek translations of M.Gorky’s novel ‘Mother’]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.
12. Muhammadjonov, M. (1964). *Turmush urinishlari* [Life attempts]. Tashkent: O‘zR davlat badiiy adabiyot nashriyoti.
13. (1985) O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi (1985). [History of artistic translation in Uzbekistan]. Tashkent: Fan.
14. (1971) *O‘zbek sovet adabiyoti* [Uzbek Soviet literature]. Vol. 2. Tashkent: Fan.
15. Chulpan, A. (2016). *Asarlar* [Works]. In 4 volumes. Vol.4. Compiler and yeditor D.Ne’matova. Tashkent: Akademnashr.
16. Sharafiddinov, O., Sharifiy, J. (1935). *Adabiyot* [Literature]. Tashkent: O‘zSSR davlat nashriyoti.
17. Sharafiddinov, O., Sharifiy, J. (1937). *Adabiyot* [Literature]. Tashkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti.
18. Sharafiddinov,O., Sharifiy J. (1937). *Adabiyot xrestomatiyasi* [Literary chrestomatia]. Tashkent: O‘quv-pedagogik davlat nashriyoti.
19. Pushkin, A.S. (1939). *Dubrovskiy* [Dubrovskiy]. Tashkent: O‘zGIXL, Nafis adabiyot davlat nashriyoti.
20. (1840) Sochineniya A.Pushkina. Dubrovskij. [Works of A.Pushkin. Dubrovsky]. Vol.10. St. Petersburg.

Muallif haqida ma’lumot:
ABDULLAYEVA Dildoraxon Zumratbekovna – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: dildora.abd@mail.ru